

Sarvinoz Bo'stonbekova

*Pedagogika fakulteti logopediya yo'nalishi 1-bosqich 23/5guruh talabasi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*

Shoxida Nusratilloevna Miraxmedova

*Ilmiy rahbar, Gumanitar fanlar fakulteti
"Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*

Annotatsiya: *Hozirgi kunga kelib butun dunyoda axborot saqlash, tarqatish, qayta ishlash global muammo hisoblanadi. Ushbu maqola yordamida biz axborot to'plash har xil medialardan foydalanish, mantiqiy fikrlash, o'z zamonamizning yangiliklaridan unumli foydalanishga ega bo'lamiz.*

Kalit so'zlar: *Axborot, telegram, operativ, jamiyat, texnologiya, uzatish, saqlash, kompyuter, IT-industriya, pochta, sariq matbuot.*

Kirish

O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularning IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi bir qancha qonunlari mavjud". Ulardan "Zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora tadbirlari "kabi bir qancha qarorlari imzolandi. Davlatimiz raxbari bu kabi qarorlarni imzolashidan maqsad biz kelajak yosh avlodlarning yanada bilim ko'nikmalariga ega bo'lishimiz Alisher Navoiy, Zahridin Muhammad Bobur, Al-Xorazimiy, Abu Rayhon Beruniy kabi buyuk shaxslarni kamol toptorish uzog'imizni yaqin qilish shu kabi bir qancha maqsadlar ko'zda tutilgan. Men shuni ayta olamanki axborot manbalariga urg'u berish ning asosiy maqsadi „Sariq matbuot“ kabi biz insonlar uchun xavfli bo'lgan ongimizni zaharlayotgan manbalardan yiroq tutishdir. „Sariq matbuot“ bu gazeta tirajini ko'paytirish maqsadida ko'plab o'quvchilarni jalb qiladigan ,shunday formatda yangiliklarni nashr qilish usuli. Bu jurnalistikaning o'ziga xos turi bo'lib, unda yangiliklar hech qanday dalilsiz chop etiladi va yengil yelpi axborotlar aks ettiriladi. Sariq jurnalistikaning asosiy maqsadi jamiyatdagi odamlarning e'tiborini jalb qilishdir. Axborot texnologiyalari muhandisligini rivojlantirish hozirgi kun dolzarbligi, jamiyat rivoji va takomillashida jadallshganligini hisobga olganda tarmoq ostida axborot ma'lumot almashish muhandislik vazifasi muqarrardir.

Axborot tizimi – axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan

jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari. Axborotning salbiy va ijobiy ta'siri. Axborotning o'z vaqtida olingan to'g'ri va sifatli axborot turli sohalarda aniq qaror qabul qilish imkonini beradi. To'g'ri sifatli axborot insonlar, ayniqsa yoshlarning dunyoqarashini boyitishi, zamonaviy bilimlar egasi bo'lishi imkonini beradi,

Axborotning salbiy tomoni shundan iboratki, hozirgi kunda ayrim g'arb davlatlaridan kirib kelayotgan bizning milliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan axborotlar va qarashlar hamda insonlar ongini zaharlovchi ma'lumotlar ham mavjud. Ayniqsa bunday ma'lumotlar Internet tarmog'i orqali keng tarqalmoqda. Internet va SMS xabarlar orqali, qadriyatlarimiz va an'analarimizga, davlatchiligimizga zid bo'lgan nojo'ya axborotlar yoshlarning ongini zaharlashi va ularni noto'g'ri yo'llarga boshlashi mumkin. Bunday holatlarning oldini olish bizning vazifamizdir. Har doim axborotdan o'rinli va to'g'ri foydalanish zarur. Zamonaviy jamiyatda insonning ishlab chiqarish faoliyati umumlashgan ishlab chiqarish (UICH) doirasida kechmokda. UICH bir-biri bilan uzviy bog'liq fizik(moddiy) xamda axboriy-mantikiy qismlardan iborat. Ishlab chiqarishning axboriy-mantikiy qismiga kuch bergan mamlakatlar yukori ish unumdorligi va zamonaviy, xaridorgir maxsulotlar ishlab chiqarishga erishganliklari ma'lum. Axboriy-mantikiy ishlab chiqarish (AMICH)ning resurslari asosini axborot, mexnat vositalarini, uning dasturiy ta'minoti, axborot texnologiyalari va boshqalar tashkil qiladi. Mexnat vositalari xamda aqliy mexnatni sarf qiluvchi, tajriba va bilimga ega insonlar AMICHning ishlab chiqarish kuchlarini tashkil qiladi. AMICHning maxsuloti abstrag't ob'ekt (axborot, model) iste'mol predmeti sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ishlab chiqarish doirasidagi XX asrda yuz bergan o'zgarishlar AMICHning paydo bo'lishi va uning ahamiyatining oshib borishi bilan bog'liqdir. Binobarin, UICHning umuman unumdorligining, shu jumladan, AMICHni avtomatlashtirish bilan bog'liq deb karalishi zarur.

Hisoblash texnikasi va aloqa vositalarining keng rivojlanishi axborotni ilgari hayolga xam keltirib bo'lmaydigan xajm va tezkorlikda yig'ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish, ya'ni avtomatlashtirilgan xolda ishlov berish imkoniyatini yaratib berdi. Axborot texnologiyalari tufayli insonning faoliyati, uning kundalik mulokot soxasi dunyo sivilizatsiyasi ishlab chiqqan tajriba, bilimlar va ma'naviy kadriyatlarni jalb etish xisobiga chindan xam bexad kengaymokda. Bu esa uz navbatida jamiyatning yukori darajada axborotlashgan bo'lishini talab etadi. Axborot texnologiyalari ma'lumotlarni boshqarish va qayta ishlash texnologiyalaridir. Odatda bu atama ostida kompyuter texnologiyalari sohasida turli axborot va kompyuter tarmoqlari orqali yig'ish ,saqlash , himoyalash ,uzatish ,qayta ishlash va jadallshtirish ishlari ustida amallar olib

boriladi. Men shuni ayta olamanki biz axborot vositalari orqali o'z ehtiyojlarimiz uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni balki aksi bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni ham olishimiz mumkin. Hozirgi kunga kelib axborot vositalaridan foydalanish yo'lida o'z qoidalariga rioya qilishimiz zarur. Bu axborot vositalaridan biz uchun qanday foyda borligi, muallifi kim ekanligi, nima maqsadda chop etilganligi, shu kabi bir qancha savollarga qiziqqan holda undan foydalanishimiz kerak ekanligi aytib o'tiladi. Axborot vositalar oldindan mavjud yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rinni egallamoqda. Meni fikrimcha axborot texnologiyalari industriya majmuini kompyuter, aloqa tizimi ma'lumotlar ombori, bilimlar ombori va u bilan bog'liq faoliyat soxalari tashkil qiladi. Biz axborot tizimi orqali o'zimiz uchun kerak bo'lgan ma'lumotlarni olishimiz, balki kerak bo'lmagan ma'lumotlar ham bizning ongimizga o'rnashib oladi. Axborot texnologiyalarining hozirgi zamon taraqqiyoti hamda yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha soxalarini axborotlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Jamiyatda axborotlashtirish deganda, axborotdan iqtisodni rivojlantirish va intellektuallashtirish jarayonlarini jadallashtirishni ta'minlaydigan jamiyat boyligi sifatida foydalanishni tushunaman. Jamiyatni axborotlashtirish respublikamiz xalqi turmush darajasining yaxshilanishiga, ijtimoiy ehtiyojlarining qondirilishiga, iqtisodning o'sishi hamda fan-texnika taraqqiyotining jadallashishiga xizmat qiladi. Men shuni qo'rqmay ayta olamanki hozirgi kunga kelib axborot vositalaridan foydalanish kundalik ehtiyojlarimizda eng zarur manba bo'lib xizmat qilmoqda. O'tmishda mazkur tushuncha ortida odamlar tomonidan bir biriga og'zaki, yozma va boshqa usulda beriladigan ma'lumotlar tushunilgan. Shu bois axborot chegaralangan, qalbakilashtirilgan tezkor, dolzarb va hokozo bo'lishi mumkin. Inson va jamiyat doimiy ravishda ma'lum bir axborot muhitida bo'ladi. Buni xattoki „axborotning yo'qligi ham, baribir axborot“ degan ibora tasdiqlaydi. XIX asr oxiri aloqa vositalarining taraqqiyoti bilan bog'liq telegram, radio ma'lumotlarini turli masofalarga operativ uzatish va qabul qilish imkonini berdi. Ko'rib turibmizki XXI asr axborot texnologiyalar rivojlanishining cho'qqiga chiqqan davri hisoblanadi. Davr talabiga ko'ra bugunga kelib kompyuter texnologiyasi juda rivojlanib ketdi. Ma'lumotlarni boshqarish ayniqsa hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu ta'sir shunchalik kuchliki, axborot texnologiyalarida bo'layotgan o'zgarishlar yillar ichida emas, balki oylar ichida o'zgarib boyib bormoqda. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lgan bo'lsa-da, hozirgi axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, xomashyo, materiallar va moddiy iste'mol buyunlariga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik qilmoqda, ya'ni axborot texnologiyalari mavjud yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rinni egallamoqda.

Xulosa. Axborot vositalaridan tog'ri foydalanish hozirgi davr talabi bo'lib kelmoqda. Har bir axborot vositalarini uzatish va saqlashda ehtiyot bo'lishimiz kerak. Chunki har bir bilib yoki bilmasdan uzatgan xabarlarimiz uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchilik kodekslarida jinoiy javobgarliklar joriy etilgan. Globallashuvning insoniyat jumladan yoshlar hayotiga ta'siri juda kuchli bo'lib, o'z navbatida ularning globallashuvning kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarining oldini olish uchun mafkuraviy immunitet shakllantirish asosiy maqsadlardan biri bo'lib mazkur sohaga oid ilmiy xulosalaridan foydalaniladi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kun yoshlari taraqqiy etgan texnologiyalar olamida cheksiz taliflar chegarasi mavjuddir. Ushbu tanlovlar biz yoshlarning hayotimizga ta'sir o'tkazishdan tashqari jamiyat hayotiga ham ta'sir o'tkazadi. Ijtimoiy tarmoqlarga kirish imkoniyati taqdim etilar ekan, medialardan xavfsiz va tog'ri foydalanish bo'yicha qo'llanma ham berilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

55. Mirahmedova, S. N. (2021). Is'xoqxon Ibrat asarlarida ma'naviy-axloqiy qarashlarning o'ziga xos xususiyatlari. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 770-778.
56. Nusratilloevna, M. S. (2023). Ma'naviy makonning falsafiy muammolari. *So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*, 6(7), 128-130.
57. Mirahmedova, Shohida (2023). Ma'naviy makonning falsafiy muammolari. *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 6(7), 135-137.
58. Mirahmedova, S. (2023). Ma'naviy makonga oid yondashuvlar. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(7).
59. Nadim, H. (2021). Afg'oniston o'zbeklari to'y-marosim etnografizmlarining forsiy lug'atlardagi ko'rinishlari. *NamDU ilmiy axborotnomasi*.
60. Pazilova, M. E. (2004). Pedagogical bases of formation of student's spirituality by means of hadiths. pfn dissertation.
61. Ermekbaevna, P. M. (2021). Development of intellectual activity of students through the heritage of our ancestors. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(8).
62. Pazilova, M. (2022). Талабаларнинг ўқув-билиш фаолиятини ривожлантириш-давр талаби. *Science and innovation*, 1(В8), 1288-1294.
63. Pazilova, M. E. (2017). Didactic Opportunities in Pedagogical Cooperation. *Eastern European Scientific Journal*, (5), 54-58.
64. Kadyrova, O. K. (2020). Professional pedagogical activity its types and structure. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, 1(12), 93-96.

65. Kadyrova, O. K. (2021). Foundations of artistic synthesis in the literatures of the west and the east at the present stage. *Innovative engineering and management research*, 10(01), 227-232.
66. Kadirova, O. K. (2021). Comparative typological analysis of Russian-Uzbek literary relations in their historical development. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 48(12).
67. Kadirova, O. K.; Kadirova, Z. Z. (2023). O'zbek teminologiyasi. *Darslik*, 1(1), 155.
68. Кадирова, О. Х., & Кадирова, З. З. (2022). Ўзбек терминологияси. *Журнал филологических исследований*, 1(2), 156-160.
69. Quvondiqov, S. S. (2022). Dynamic situation as a meta way of perception and understanding of competitive activity in martial arts.
70. Кувондиқов, С. С. (2023). Structure and long-term dynamics of competitive activity of highly qualified basketball players. *инновации в педагогике и психологии*, 6(3).
71. Sidikovich, K. S. (2023). Analysis of national and foreign experiments on the diagnosis of processes for the development of a sense of patriotism. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 16, 243-248.
72. Kuvondikov, S. S. (2023). Model for the development of a sense of patriotism in future educators. *Confrencea*, 6(6), 289-292.
73. Sidikovich, K. S. (2023). Integrative-Pedagogical Features of The Development of A Sense of Patriotism in Future Educators. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, 1(2), 259-264.
74. Sidikovich, K. S. (2023). Theoretical bases of developing a sense of patriotism in future teachers based on the competence approach. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 15, 363-366.
75. Кувондиқов, С. (2022). Связь эмоций с психическим состоянием борцов высокой квалификации. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 5(7).
76. Quvondiqov, S. S. (2023). Vatanparvarlik tarbiyasiga kompetensiyaviy yondashuvni tadbiq etish ijtimoiy zarurat sifatida. *Pedagogika*, 1(3), 33-37.
77. Quvondiqov, S. S. (2023). Vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish jara yonlarini tashxis etishga doir milliy v a xo'rg'ulu t ajribalar t anlili. *TDPU Ilmiy axborotlari*, 1(3), 248-254.
78. Mirahmedova, S. (2023). Harakatlar strategiyasi-O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqich asosi hamda jamiyatdagi o'zgarishlar. *PEDAGOG*, 6(5), 42-54.

79. Mirahmedova, S. (2023). Mafkuraviy makon tushunchasining mazmun-mohiyati. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 180-182.
80. Mirahmedova, S. (2023). Ma'naviy makon: imkoniyat va istiqbollar. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(5), 93-95.
81. Nusratilloevna, M. S. (2023). Spiritual Space: Opportunities and Prospects. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(9), 230-234.